

NOGIRONLIGI BO'LGAN O'QUVCHILARGA KIYIM ANDOZALARINI KOMPYUTERDA LOYIHALASHGA O'RGATISH

Boltayeva Saida Rustamboy qizi

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum
maxsus fan o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19799391>

***Annotatsiya.** Maqolada inklyuziv ta'lim jarayonining maxsus texnikumlarda nogironligi bo'lgan o'quvchilarga mato va kashtachilik ko'nikmalarini o'rgatish usullari va texnikalari bilan tanishtirish. Mato bilan ishlash nogironligi bo'lgan o'quvchilarga kiyim andozalarini kompyuterda loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishni o'rgatiladi.*

***Kalit so'zlar:** Nogironligi bo'lgan o'quvchilar, o'rganish, moslashishga asoslangan ta'lim jarayoni, muloqot normalari va qoidalari, bo'shshish texnikasi: jismoniy mashqlar uchun tanaffuslar, barmoq o'yinlari, bo'shshish texnikasi va massaj, ta'limiy o'yinlar - kognitiv faollikni rivojlantirish uchun o'yinlar, Kompyuterda dasturlash tillaridan foydalanish, geometrik yo'nalishdagi tajribalarni tashkillashtirish koordinatalar, Pentium protsessorli, Logo dasturi.*

Nogironligi bo'lgan o'quvchilarni jamiyatga ijtimoiylashtirishning asosiy maqsadi ularni ta'lim va kasb o'rgatish orqali jamiyatga integratsiya qilishdir. Kasb tanlashda va ta'lim olishida ularga usullar va texnikalarni to'g'ri tanlash, ularni ixtisoslashtirilgan texnikumlar va jamiyatga moslashtirish va individual rivojlanish strategiyalarini tanlash, shuningdek, o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun muhitni o'zgartirish juda muhimdir.

Nogironligi bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda ikkita sohani ajratish mumkin:

- Moslashishga asoslangan ta'lim jarayoni, ya'ni ularni ta'lim jarayoniga kiritish. Ushbu ta'lim jarayonining mazmuni bolalar guruhida o'ziga xos madaniy va gigiyenik ko'nikmalar, xulq-atvor normalari va qoidalarini, shuningdek, muloqot normalari va qoidalarini egallashdir.

- Ta'lim jarayonining mazmuni nogironligi bo'lgan o'quvchilarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan, soddalashtirilgan materiallardan iborat bo'lishi kerak. Inklyuziv ta'lim shakliga o'tish va uning muvaffaqiyati uchun eng muhim shartlardan nogironligi bo'lgan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va yordam berish tizimidir.

Nogironligi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashning eng samarali usullari quyidagilardir:

-Bo'shshish texnikasi: jismoniy mashqlar uchun tanaffuslar, barmoq o'yinlari, bo'shshish texnikasi va massaj - ayniqsa yuzdagi mushaklarning spazmlari va tarangligini yengillashtirishga yordam beradi. "Tabassumlar", "soat", yuzni burishtirish va qo'llar uchun mashqlar, barmoq mashqlari va massaj to'plaridan foydalanish kabi artikulyatsion mashqlar.

- Ta'limiy o'yinlar - kognitiv faollikni rivojlantirish uchun o'yinlar, bunda nogironligi bo'lgan o'quvchilar avval kartalarni boshqa bolalarga uzatib, keyin o'zi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin.

Bularga stol o'yinlari, jumboqlar va konstruksiyalar kiradi.

Har qanday faoliyat davomida, nogironligi bo'lgan o'quvchilarning harakatlarini yaqinroq aloqada bo'lish va doimiy ravishda kuzatib borishdan boshlab, lekin turli vazifalarni bajarishda mustaqillikni asta-sekin oshirib boradigan bir xil o'qitish usullaridan doimiy ravishda foydalanish juda muhimdir. Nogironligi bo'lgan o'quvchilarga kiyim andozalarini kompyuterda loyihalash davomida ma'lumotlar omborini loyihalash va yaratishdan oldin shu ma'lumotlar omboriga joylashtiriladigan axborotlarning umumiy tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'lish lozim.

Ma'lumotlar omboridan kerakli savollarga javob olish va ma'lumotlarga turli o'zgartirishlar kiritish uchun ham uning umumii tuzilishini bilish maqsadga muvofiq. Chunki ma'lumotlar omborida qanday ma'lumotlar borligini bilsangizgina, ularga mos savollarni qo'ya olasiz. Bir axborotni turli xil vositalar orqali va turli shakllarda ifodalash mumkin

Axborotlarni ifodalovchi vositalar majmuini ma'lumotlar modeli deb ataladi.

Albatta, turli odamlar tashqi dunyoni turlicha talqin qiladilar va ular haqida turlicha bilimga ega bo'ladi. Shuning uchun ham haqiqiy dunyo va undagi hodisalarni anglashda turlicha modellardan foydalaniladi. Modellashtirish yoki modellashtirishning rasmiy muammolarini o'rganadigan va tadqiq etadigan yaxlit nazariya mavjud (bunday nazariyalar oliy o'quv yurtlarida o'rganiladi). Hozirgi kunda kompyuterda modellashtirish texnologiyasi mavjud bo'lib, uning maqsadi atrofimizni o'rab turgan tabiat, unda ro'y beradigan hodisa, voqealarni va jamiyatdagi o'zgarishlarni anglash, tushunib yetish jarayonini zamonaviy usullar vositasida tezlashtirishdir.

Kompyuterda modellashtirish texnologiyasini o'zlashtirish kompyuter tizimlarini (vositachi qurilma sifatida) yaxshi bilishni va unda modellashtirish texnologiyalarini ishlata olishni talab qiladi. Kompyuterda dasturlash tillaridan foydalanish matematik modellashtirish usulida jiddiy burilish yasadi. XX asr oxirlarida yaratilgan yuqori quvvatli *Pentium* protsessorli kompyuterlarda o'rganilayotgan jarayonlar modellarining turli xil ko'rinishlarini (grafik, diagramma, animatsiya, multiplikatsiya.) kompyuter ekranida hosil qilish mumkin. Ekrandagi modelni (masalan, rasm eskizini) turli xil darajada (tekislik, fazo bo'yicha) harakatga keltirish imkoniyatlari mavjud.

Ektranda hosil qilingan modelni kompyuter xotirasida fayl ko'rinishida saqlash va undan bir necha marta foydalanish mumkin. Umuman olganda, kompyuterli modellashtirishning metodologiyasida quyidagi yo'nalishlarni ajratish mumkin:

1. Geometrik yo'nalishdagi tajribalarni tashkillashtirish koordinatalar tekisligida amalga oshiriladi. Kompyuter geometrik ob'yektlarning xossalarini o'rganish va matematik farazlarni tekshirishda modellarni ko'rish va ularni tadqiq etish vositasi sifatida ishlatiladi.

2. Ikkinchi yo'nalish turli xil harakatlarni modellashtirish bilan bog'liq. Kompyuter modellari orqali turli xil harakatli masalalarni yechish mumkin. Bu ro'y beradigan jarayonlarning mohiyatini chuqurroq va kengroq his qilishga, olingan natijalarni haqiqiy baholash va kompyuterda modellashtirish imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarning kengayishiga olib keladi.

3. Uchinchi yo'nalish - kompyuter ekranida funksiya grafiklarini modellashtirish - kasbiy kompyuter tizimlarida keng qo'llaniladi. Masalan, *Logo* dasturi funksiya grafiklari, tenglama va tenglamalar tizimini yechish va ularning natijalarini olish imkoniyatlarini beradi. Eng muhimi shundaki, kompyuterda modellashtirish texnologiyasidan foydalanish haqiqiy voqelikni anglashda, bilish jarayonini amalga oshirishda yangi bosqich rolini o'ynaydi.

Ma'lumotlar modellari shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar quyidagi talablarni bajarishi kerak:

1. Soddalik. Ma'lumotlar modeli kam sondagi bog'lanishli tuzilish turlariga ega bo'lishi lozim.

2. Yaqqollik. Ma'lumotlar modeli vizual (ko'zga ko'rinadigan, tasvirlanadigan) bo'lishi kerak.

3. Qismlarga bo'linishi. Ma'lumotlar modeli ma'lumotlar omborida oddiy o'rin almashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

4. O‘rin almashtirish. Ma‘lumotlar modeli o‘ziga o‘xshash modellar bilan almashtirilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

5. Erkinlik. Ma‘lumotlar modeli aniq bo‘lakchalarnigina o‘z ichiga olmasligi lozim.

Zamonaviy tikuvchilik sanoatida kompyuter texnologiyalarining o‘rni tobora ortib bormoqda.

Ayniqsa, bichim andozalarini kompyuterda yaratish mahsulot ishlab chiqarish jarayonini sezilarli darajada optimallashtiradi va tezlashtiradi. Bu usul an‘anaviy qo‘l mehnatiga asoslangan andoza tayyorlash jarayonlariga nisbatan ko‘plab afzalliklarga ega bo‘lib, zamonaviy dizaynerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun ajralmas vositaga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kiyimlarni kompyuterda loyihalash fanidan o‘qitish materiallari
2. Internet ma‘lumotlari